

## MA’NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O’RNI VA ROLI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14544654>

Xoliqulov Muhammad Qaxor o’g’li

O’zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti assistent o’qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada inson muammosi, uning ma’naviy borliqdagi muammolari, xususiyatlari jamiyat hayotida tutgan o’rni va roli tahlil qilingan. Kishilar orasidagi aloqa va munosabatlar, Jamiyatning ma’naviy hayoti o’ziga xos tarkibiy tuzilish. Shuningdek, jamiyat a’zolari orasida obyektiv tarzda yuzaga keladigan aloqa va munosabatlar ijtimoiy xususiyatlari, ijtimoiy ong jamiyat ma’naviy hayotini o’zida mujassamlashtirgan murakkab tizimiga ega bo’lgan ijtimoiy hodisa sifatida vujudga kelishi hamda ijtimoiy ongning strukturasi ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ma’naviyat, ijtimoiy ong, inson va jamiyat ma’naviyati, aloqa vositasi, inikos, ijtimoiy ong strukurasi.

Kishi o’z bilimlarini amaliy harakatda namoyon qilishining bir necha darajadan iborat bosqichlari mavjud:

Birinchi bosqich. Odam egallagan bilimlarini amaliyotda qo’llayotganida beo’xshov harakatlar qilib, ortiqcha kuch va vaqt sarflasa ham, maqsadiga yesta va ish bajarilsa, bilim ko’nikmaga aylangan, deb hisoblanadi.

Ikkinci bosqich. Kishi o’z bilimlarini hayotda doimiy qo’llashi natijasida, maqsadga yo’naltirilgan harakatlarini ravon, ortiqcha kuch sarflamay, tez va sifatli amalga oshirishi malaka deyiladi.

Uchinchi bosqich. Inson ona qornidan boshlab, butun hayoti davomida orttirgan foydali bilimlarini amalda qo’llayverishi natijasida unda hosil bo’lgan ko’nikma va malaka, uning hayot tarziga aylanganlik darajasi ma’naviyat deyiladi.

Binobarin, ma’naviyatga quyidagi falsafiy ta’rifni bersa bo’ladi. Ma’naviyat - bu kishining egallagan foydali bilimlari amaliy hayotida sinalaverib, ko’nikma va malaka darajalaridan o’tgan va ruhiga singib, hayot tarzida aks etadigan ijobiy ijtimoiy sifatlar majmuidir<sup>1</sup>.

Ma’naviyat ko’proq inson qalbiga, botiniy tomoniga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu iloxiy

<sup>1</sup> Ziyomuhamedov B., Ziyomuhamedova S., Qodirova S. Ma’naviyat asoslari. Toshkent: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000, 8 b.

nur xech bir jonzotda yo’q. Ma’naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi.

E.Yusupov insonda mavjud bo’ladigan hamma xislatlar emas, balki ijobiliyঠarigina ma’naviyat bo’la olishini ko’rsatib: “Ma’naviyat - inson axloqi va odobi, bilimlari, iste’dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog’langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir”<sup>2</sup>, deb ta’riflaydi.

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlar to’g’ri. Biroq bildirilayotgan ta’riflarda ma’naviyatning ko’pgina qirralari o’z ifodasini topgan bo’lib ularda faqat mualliflar o’zlarining nuqtai nazarlarini bildirganlar, ammo keltirilgan ta’riflarda insonlaming o’zaro munosabatlari hamda xayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar masalasi e’tibordan chetda qolganligi ko’rinadi.

Shuningdek, tabiat va jamiyat hodisalarini inson faoliyati va ta’siri tufayli, uning ehtiyojlarini qondirishi natijasida qadriyat sirasiga kiritiladi. Insonning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, orzu-istiklari, ideallariga mos kelmaydigan tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyatlar deb hisoblash noo’rindir. Masalan, tabiatdagi qazilma boyliklar inson ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatila boshlagandan keyingina qadriyatga aylanadi. Shungacha ulami tabiiy boyliklar deb hisoblashimiz lozim.

Jamiyat o’zaro bir-biri bilan aloqa - munosabatga kirishgan kishilar jamoasidir. Jamiyat a’zolari orasida obyektiv tarzda yuzaga keladigan aloqa va munosabatlar ijtimoiy munosabatlari, deb yuritiladi. Kishilar orasidagi aloqa va munosabatlar qanchalik xima-xil bo’lmashin, ular 2 asosiy ko’rinishga ega:

- a)Moddiy, iqtisodiy munosabatlar
- b)Ma’naviy munosabatlar

Ma’naviy munosabatlarga axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy kabilami kiritish mumkin.

Moddiy, iqtisodiy munosabatlar inson onidan tashqarida, unga bog’liq bo’lmagan holda shakllanadi. Ma’naviy munosabatlar ong orqali amalga oshadi va bunda jamiyatdagi g’oyalar, ma’naviy qadriyatlar ma’naviy munosabatlarga hal qiluvchi darajada ijobiy yoki salbiy ma’noda ta’sir ko’rsatadi.

Ma’naviy munosabatlarning o’ziga xos ko’rinishi – shaxslararo munosabatlardir. Jamiyat ma’naviy hayoti ma’naviyat tushunchasida o’z ifodasini topadi. Demak, jamiyatning ma’naviy hayoti deganda unda ishlab chiqarilgan xilmal-xil qarashlar, g’oyalar nazarda tutiladi. Jamiyatning ma’naviy hayoti o’ziga xos tarkibiy tuzilishga ega. Uning asosiy elementlari deganda:

<sup>2</sup> Yusupov E.. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. –Toshkent: Universitet, 1998 y. –b.58.

- a) ma’naviy faoliyat
- b) ma’naviy ehtiyoj
- v) ma’naviy o’zlashtirish
- g) ma’naviy munosabatlar nazarda tutiladi.

Ma’naviy faoliyat yoki ma’naviy ishlab chiqarish inson faoliyatining muhim ko’rinishi bo’lib, kishilaming ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan moddiy olamni yaratishi nazarda tutadi. Ma’naviy ishlab chiqarish insonning olamga foal munosabatini ifodalaydi. Ayni vaqtda ma’naviy ishlab chiqarish o’zining bir qator jihatlari bilan moddiy ishlab chiqarishdan farqlanadi.

a) Agar moddiy ishlab chiqarish natijalari narsalar dunyosini ishlab chiqarishga, moddiy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan bo’lsa, ma’naviy faoliyat natijalari g’oyalar bilimlar, ma’naviy qadriyatlarning shakllanishiga olib keladi.

b) Moddiy ishlab chiqarish kishilar hayotiga bevosa zarur moddiy olamni yaratishga yo’naltirilgani holda ma’naviy ishlab chiqarish jamiyat hayoti uchun oqibat natijada muhim ahamiyat kasb etadi.

v) Moddiy ishlab chiqarish natijalari bo’lmish mahsulotlar predmetli xarakterga ega bo’lsa, ma’naviy ishlab chiqarish natijalari bilim, axborotlar shaklida namoyon bo’ladi.

g) Ma’naviy ishlab chiqarish jamiyat hayotining boshqa barcha sohalari (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy) ning yanada takomillashib borishiga xizmat qiladi.

d) Ma’naviy ishlab chiqarish turli shakl va ko’rinishlardan iborat bilimlarning shakllanishi va taraqqiyotiga xizmat qiladi.

e) Ma’naviy ishlab chiqarish ijtimoiy fikrning shakllanishiga xizmat qiladi. Bunda g’oya, g’oyaviylik muhim o’rin tutadi.

j) Ma’naviy ishlab chiqarish olamni nazariy, rastional bilish asosida quriladi.

z) Ma’naviy ishlab chiqarishda ijodning ustivorligi kuzatiladi.

y) Ma’naviy ishlab chiqarish deganda ishlab chiqilgan g’oyalami jamiyat hayotiga yoyish ham nazarda tutiladi.

Ma’naviy va moddiy ishlab chiqarishni aslo bir-biridan ajratib bo’lmaydi. Bu yaxlit ishlab chiqarish jarayonining o’zaro uzviy bog’liq 2 tomonini tashkil etadi.

Ma’naviy ishlab chiqarish jarayonining o’zi muttasil rivojlanib boradi. Dastlab ma’naviy ishlab chiqarish xalq ijodiyotida o’z ifodasini topgan.

Aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi ma’naviy ishlab chiqarish sohalarining shakllanishi va taraqqiyotiga xizmat qilgan. Shu asosda ma’naviy ishlab chiqarish ixtisoslashib borgan.

Ma’naviy ishlab chiqarish jarayoni, uning natijasida yaratilgan jamiki narsalar: adabiyot, axloq, til, san’at, fan jamiyat ma’naviy hayotining shakllanishi va rivojlanishiga sababchi bo’ladi.

Ma’naviy ishlab chiqarish keng ma’nodagi tushuncha bo’lib, uning faoliyat jarayonida:

- a) obrazlar, g’oyalar, nazariyalar yaratiladi.
- b) insonning o’zi va jamiyat takomillashib boradi.

Jamiyatning ma’naviy hayoti uzviy bir-biriga bog’liq jarayonlardan tizimidan iborat. Bu tizimni ma’naviy ehtiyoj-ma’naviy faoliyat-ma’naviy o’zlashtirish tarzida ifodalash lozim.

Ma’naviy o’zlashtirish, deganda ma’naviy qadriyatlar: bilim, til, adabiyot, san’at, ahloq normalari kabilarni iste’mol qilish nazarda tutiladi.

Ma’naviy ishlab chiqarish natijalari (bilimlar, badiiy va xokazo ijod namunalarining jamiyat hayotiga kirib borishi-ma’naviy o’zlashtirishdir).

Jamiyat o’zaro bir-biri bilan aloqa-munosabatga kirishgan kishilar jamoasidir. Jamiyat a’zolari orasida obyektiv tarzda yuzaga keladigan aloqa va munosabatlar ijtimoiy munosabatlar, deb yuritiladi. Kishilar orasidagi aloqa va munosabatlar qanchalik xima-xil bo’lmasin, ular ikki asosiy ko’rinishga ega:

- a) Moddiy, iqtisodiy munosabatlar
- b) Ma’naviy munosabatlar

Ma’naviy munosabatlarga axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy kabilarni kiritish mumkin. Ma’naviyat insonning inson bo’lib shakllanishiga turki beradigan buyuk omil.

#### Ma’naviyat insonning

- botiniy dunyosi, ruhiyati, o’z-o’zini anglashi

- ongliligi, qobiliyati, intilishlari

- did-farosati, aql-zakovati, yaxshilikni yomonlikdan,adolatni razolatdan, go’zallikni xunuklikdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyati.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ong jamiyat ma’naviy hayotini o’zida mujassamlashtirgan murakkab tizimiga ega bo’lgan ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy ongning stmkurasiga:

- a) ijtimoiy ong sohalari;
- b) ijtimoiy ong darajalari;
- v) ijtimoiy ong shakllari kiradi.

Ijtimoiy ong sohalariga kundalik va nazariy ong: darajalariga - ijtimoiy mhiyat va ijtimoiy mafkura, shakllariga-axloqiy, estetik, diniy, siyosiy, huquqiy ong kiradi. Ijtimoiy ong jamiyatda kechadigan o’zgarishlar, jarayonlami anglash orqali shakllanadi. Jamiyat ma’naviy hayotida amal qiladigan umumiyl qonun-ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi, deb yuritiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Jakbarov M. “Komil inson g’oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil.-T., Abu Ali Ibn Sino

nashr, 2000.

2. Yusupov E.. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. –Toshkent: Universitet, 1998.
3. O‘G‘LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 4.1 (2024): 22-27.
4. Ziyomuhamedov B., Ziyomuhamedova S., Qodirova S. Ma’naviyat asoslari. Toshkent: O`zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000.
5. Шерманов, И. (2017). МИЛЛИЙ ИЖТИМОЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА УНИНГ МУСТАҚИЛ ИЖТИМОЙ ТАРАҚҚИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 35(2), 103-104.